



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYALANUVCHILARINING TASVIRIY KO'NIKMALARINI
SHAKILLANTIRISH**

Jummayeva Sayyora Shokir qizi
Termiz Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'limgo'naliishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya Bizning mustaqil vatanimizni ertasi kelajak yoshlarni qo'lida ekan, biz shu yoshlarimizni maktabgacha ta'limgoshidan tarbiyalab bormog'imiz kerak. Bolalarga avvalambor, Vatan va uni sevmoq, asramoq kerakligini tushuntirishimiz hamda vatanga bo'lgan sadoqatini shakillantirishimiz lozim. Bolajonlarni kichik yoshidan shu narsalarga o'rgartar ekanmiz, ular yanada yetuk farzand bo'lib o'sishlari uchun sababchi bo'lgan bo'lamiz. Bolada vatanga bo'lgan muhabbatni his qildirish uchun tasavvur qilishga va uni tasvirlab berishga undagan holda vatan nima ekanligini anglatishimiz mumkin. Ushbu maqolada shu narsa aks etganki, bolada tasviriy va tasavvuriy ko'nikmalarini shakillantirish haqida bat afsil aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, tasviriy ko'nikma, bolalar bilan olib borilayotgan faoliyatlar, rivoylantirish, metodlar, vizual faoliyat, tasviriy qobiliyat, global bilim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng maktabgacha ta'limga juda katta e'tibor qaratildi va maktabgacha ta'limgoshkilarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakillantirishdek muhim bo'lgan vazifalarni qo'ydi. Bu esa hozirgi kunda maktabgacha ta'limgoshkilarini yanada takomillashtirish kerakligini va yangicha metodlardan foydalangan holda bolalarni davlatimizning nomini yuksaklarga olib chiqishlari kerakligi kabi ta'limgoshkilariga berishga chorlaydi.,, O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son¹⁰ ida ham maktabgacha ta'limgoshkilarini tizimiga e'tibor qaratilgan va barcha tarbiyalanuvchilarini 3 yoshdan va 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan majburiy ta'limga qamrab olinishi kerakligi haqida keltirilgan. Bolalarni yuksak va yetuk qilib tarbiyalanishi uchun avvalambor bolajonlarda vatanimizga bo'lgan muhabbat tuyg'usini uyg'otish talab qilinadi, bu tuyg'uni his qilishlari uchun tasviriy ko'nikmalarini va qobiliyatlarini shakillantirish darkor. Ko'nikma bu insondagi avvalgi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatlarni amalga oshirish qobiliyat. Shuningdek tasviriy ko'nikma bu bola aytilgan narsa va predmetlami tasavvurga keltira olishi va idrok qilishi ya'ni tasavvuri shakillanishidir.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining ta'limgoshkilarini tizimiga qo'yishiga Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son



Tasviriyo'nikmani shakillantirish
maktabgacha yoshdagibolalarining
shaxsiyatini rivojlantirishda muhim rol
o'yнaydi hamda dunyoni vizual anglashga
yordam beradi. Vizual anglash ya'ni visual
faoliyat-bu bolada
tasvirlash, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash
va umumlashtirishni rivojlantiradi hamda
bolada nutqning izchil rivojlanishiga yordam

beradi. Vizual faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- rasm chizish
 - loy ishi
 - applikatsiya
 - qurish-yasasi


Vizual faoliyatning bu turlaridan tasviriy ko'nikmalarni shakillantirishda qo'llaniladi.Bu faoliyat turning har biri bola dunyo haqidagi taassurotlarini uyg'otishga va ularni tasvirlashga undaydi,bola tasavvuridagi borini qog'ozga yoki loyga chizib ifodalaydi.Vizual faoliyat bolani tasavvuri shakillanishi bilan birga qaysi materiallardan qanday foydalanishni,sifatini,foydasini va shakilini anglashga o'rgatadi.Masalan, bolaning tasviriy faoliyatini intellektual tarzda rivojlantirish uchun uni sayohatga olib chiqish hamda sayohat davomida qayerda nimani ko'rganligi,uning ko'rinishi,rangi,shaklini tasvirlab berishi uchun barcha sharoitlarni qilib berish orqali yordam berish mumkin.Bundan tashqari birqancha metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi:

- ko'rgazmali metodlar va ularni o'rgatish usullari
 - naturadan foydalanish
 - rasmlardan foydalanish

Orqali biror predmetni o'rganish, uning shaklini, hajmini, rang-hususiyatlarini o'rganish mumkin.

Ko'rgazmalimetodlardan foydalanish-bu kuzatish metodi hisoblanib tasviriy ko'nikmalami shakillantirishning umumiylasosini tashkil etadi. Bu esa bolaning fikrini jamlash, atrof-olam bilan aloqa o'rnatish va umumiylaslik yakkalikning rivojlanishiga olib keladi.

Naturadan foydalanish bu-kuzatish asosida
predmetni ko'rinishini tasvirlash
tushuniladi.Matabgacha yoshdag'i bolalarga
naturadan foydalanish xotiraning
yaxshilanishiga,tasvirlash jarayonini idrok bilan
birlashtiradi,o'r ganilayotgan predmetning
barcha xususiyatlari alohida e'tibor berishini





hamda tasvirlash jarayonida tasavvurini aniq qilib yetkazib berishni rivojlantiradi.A sosan 4-5 yoshli bolalar uchun soda naturalardan foydalaniladi,agarda guruhda bola ko'p bo'lsa 2 yoki 3 xil predmetlardan foydalaniladi.Bu esa bolaning diqqatini jamlashga hamda o'sha predmetning baraga soda elementlarini o'z xotiralarida saqlab qolishlariga yordam beradi va shu orqali bola mashina yoki qo'g'irchoqning oldi tomoni yoki yon tomonini chizishga harakat qiladi.Misol uchun ushbu mashinaning soda ko'rinishini bolalar chizishadi va rang tasvirdan foydalanishadi.Bu kabi rasmlardan foydalanib bolada xotira va tasviriy ko'nikma yaxshi rivojlanadi.Rasmlardan foydalanish ham bolada shu kabi xususiyatlarni shakillantiradi.Inson qobiliyatları ijtimoiy rivojlanish mahsulidir.Xattoki tarbiyachi ham tasviriy faoliyat mashg'ulotini bolalar bilan suhbatlashishdan boshlaydi,chunki og'zaki suhbat orqali ham bola o'z tasavvuridagini og'zaki tasvirlay olishi uchun.Bolalar o'z tasavvuri asosida ijod qiladigan mashg'ulotda suhbatning o'rni juda kattadir.O'rta va kichik guruhlarda suhbat orqali tasvirlashda bolaga bir marotaba eslatilsa bolani diqqatini jamlab oladi.Suhbat tasvirlashning maqsadi va vazifalarini yaxshi tushuntirib beradi.Xulosa qilib aytganda bolajonlarda tasviriy ko'nikmalarini shakillantirish uchun avvalo kerakli va sinalgan metodlardan foydalanib yanada yangi metodlarni ishlab chiqish yo'llarini ochib beradi.Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagagi tarbiyalanuvchilarni tasviriy faoliyatga olib o'tish juda qulay va har tomonlama tarbiyalashda kata ahamiyatga ega.Maktabgacha yoshdagagi bo'lgan davrda tasviriy faoliyat ko'nikmalarini shakillantirish tasavvur qilish,chizish va yasashni o'rgatish jarayonida muhim ahamiyati ko'rsatilgan va bu o'z o'rnida bolajonlarda global bilimlarni rivojlantirishda va ularni to'g'ri yo'naltirishda ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va texnologiyalari'' Abdumajitova S.A, Turdiyev A.G'
- 2.E.R.Shavqiyev.Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish//Inter education & global study.2024
- 3.F.Qodirova,SH,Toshpo'latova,N.Qayumova,M. A'zamova „Maktabgacha Pedagogika” „Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2019

